Kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan ularni iqtisodiy rivojlanishiga Italiyaning Iqtisodiy rivojlanish vazirligi Italiya sanoatining umumlashgan “Konfindustriya” birlashmasi bilan faoliyat olib boruvchi mintaqaviy assotsiatsiya va federatsiyalari bilan hamkorlikka ularning iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyatlarini olib boradi. Shu bilan birga kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatlarini olib borishda Italiyaning “SACE eksport kreditlarini sug‘urtalash va SIMEST” (Italiyaning xorijdagi investitsiya mablag‘larini xorijiy mamlakatlarga chiqarishda) yaqindan yordam beradi.

Italiya davlatining iqtisodiy siyosatida kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda samarali iqtisodiy jihatdan ularning faoliyatlarini rivojlantirishga iqtisodiy jihatdan yordam berishiga qaramay, ulardan soliq imtiyozi qo‘llanilmaydi. Mamlakatning hamma korxonalari, shu jumladan, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari faqat mamlakat darajasida soliqqa tortiladi. Viloyat va mahalliy darajada korxonalar soliqqa tortiladi.

Faqat kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari uchun imtiyozlar asosan moliyaviy tomondan emas, balki texnika vositalarini xarid qilish tomonidan imtiyozlarga ega. Bu imtiyozlar kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalariga asosan kredit olishda, yangi kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini tashkil etishda va yangi innovatsion ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini o‘zlashtirishda moliyaviy yordam beradilar. Agarda kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirishda shu mamlakat ichida tashkil etadigan bo‘lsa 1,0 mln. liralik imtiyozli kredit olishi mumkin. Yoki texnika va texnologiyalarni xarid qilib olishda ana shu ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan jihozlarni sotib olish va mamlakatga olib kelish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar uchun maxsus banklar tomonidan beriladigan veksellar asosida kreditni 3 mln. liradan 5 mln. liragacha beriladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini innovatsion rivojlantirish maqsadida 1991 yilda Italiyaning “Halqaro tenderlarda ishtirok etishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 317-son qonuni qabul qilindi[13]. Qonunga asosan yangi ishlab chiqarish texnologiyalarni xarid qilib olishni tashkiliy va moliyaviy jihatdan ta’minlash va qaytarib berilmaslik sharti asosida ssuda berish va imtiyozli kredit olish bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi.




2-rasm: KBS faoliyatiga ssuda berish va imtiyozli kredit olish bo‘yicha yo‘nalishlari

Kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, ularning faoliyatlarini kengaytirish, modernizatsiyalash, qayta ko‘rish, ishlab chiqarish yo‘nalishlarini o‘zgartirish, territoriyalar yo‘nalishlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy mintaqa darajasida kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini qo‘shish bo‘yicha konsorsium o‘tkazish va kapital xarajatlariga bo‘lgan zaruriyatni ta’minlash uchun imtiyozli kredit berish belgilangan. Janubiy mintaqalarda konsorsiumni tashkil etish va kredit berish foizi 30% ni rivojlangan mintaqalarda 60% tashkil etadi. Ayrim vaqtlarda u olingan kredit kapitalining 80% ga ham o‘sishi mumkin. Boshqa iqtisodiy zonalarda esa 60% gacha foiz to‘lashlari mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiyalash maqsadida kredit olinganda asosan jihozlar, avtomatlashtirilgan texnologik liniyalarni sotib olishda, patent va litsenziyalar sotib olishda laboratoriya uchun zarur bo‘lgan jihozlarni, korxona konstruktorlik byurolarini tashkil etishda va ekologiyaga salbiy ta’sir etmagan holda yetti yilgacha 70% investitsiya xarajatlarini qoplash bilan 3 mlrd. liragacha 23,0%da imtiyozli kredit ajratiladi. Italiyada 1994-yilda “Foizlar va subsudiyalar to‘g‘risida”gi 598-sonli qonunga (LAW 598/94 INTEREST SUBSIDIES) asoslangan holda olish mumkin[14]. 2013-yil 21-iyulda “Korxonalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha” 69-sonli Qonun bo‘yicha kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarini kredit berish takomillashtirilgan holda ularni kafil va

13 Who‘s who in Italy - Части 1–3 - Страница 2308 Act No. 317/1991 of the Italian State

14 https://www.federalregister.gov/documents/2000/08/08/00–19948/certain-pasta-from-italy-preliminary-results-and-partial-rescission-of-countervailing-duty

imtiyoz berish fondiga kirish yengillashtirilgan. Bu qonunga asosan Italiyaning markaziy va shimoliy qismlarida korxonalar mamlakatning ichkarisida yoki tashqarida boʻlishidan qatʼiy nazar qayta moliyalashtirish stavkasida 150,0 mln. yevro miqdorda imtiyozli kredit olish kredit olish kafolatlangan. Bu korxonalarga yilida elektr energiyalaridan foydalanish uchun 800 mln. yevro darajasida imtiyoz beriladi. Italiya hukumati 2014-yildan boshlab kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalarini himoya qilishni taʼminlash maqsadida ularga soliq toʻlovlarining 15% i miqdorida yangi texnika va texnologiyalarni sotib olishga, 2015-yilning 30 iyunidan boshlab, kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalari ustav kapitalining 40% gacha boʻlgan miqdorda soliq toʻlovlarini tushirish belgilangan. Bu korxonalarda ITTKI faoliyatini rivojlantirish uchun 2014–2016-yillar ichida soliq toʻlovlaridan 25% gacha ITTKI ishlariga mablagʻlarni sarf qilishga ega boʻlganlar. Bir yil ichida ITTKIni rivojlantirishga 5 mln. yevrogacha soliq toʻlovlaridan foydalanishlariga ruxsat berilgan va uni hujjatlashtirish muddati 2019-yil 31-dekabrgacha belgilangan. Bu imtiyozlardan korxonalar yiliga ITTKI ishlariga 30 mln. yevro sarf qilgan holda foydalanish mumkin.

Fransiyada kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalari ITTKI ishlarini rivojlantirish maqsadida soliq imtiyozlaridan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun olingan kredit toʻlovlari imtiyolaridan foydalanadilar.

Fransiyada 2014-yildan boshlab innovatsion kredit soligʻidan 30–40% gacha ITTKI yoʻnalishni rivojlantirish boʻyicha imtiyozga egadirlar. Davlat tomonidan yosh innovatsion korxona statusi ishlab chiqilgan korxonalar belgilangan. Jumladan, qanday korxonalar kichik va oʻrta korxonalar boʻlishiga javob berishlari, ITTKI ilmiy tadqiqot ishlariga sarflangan innovatsion mablagʻ, uning umumiy xarajatlarini 15% dan ortiq boʻlishiga umumiy rivojlanishga ajratilgan mablagʻlarning 50% jismoniy shaxslarga tegishli boʻlishi belgilangan. Fransiyada bir yil ichida tashkil topgan yosh innovatsion korxonalardan 9700 tasi yuqorida keltirilgan imtiyozlardan foydalanganlar. Kichik va oʻrta korxonalarning rivojlanishini Fransiyaning Sanoat iqtisodiyoti va raqamli texnologiya vazirligi tomonidan tashkil etilgan Bosh general direksiyasi boshqaradi. Hozirgi vaqtda 34 loyiha “Yangi industrial Fransiya” shiorida yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida “Aqlli texnik tekistil” ishlab chiqarish loyihasi asosida amalga oshirilmoqda.

Fransiya davlati kichik va oʻrta biznes tadbirkorlik korxonalariga yangi ish joylarini yaratish uchun ikki yoʻnalishda YeI komissiyasi tomonidan qabul qilingan ikki usulda ularga ishlab chiqarishda band boʻlgan ishchi kuchlarini kasbiy malakalarini oshirishga va qoʻshimcha ish joylarini yaratishga mablagʻ ajratadilar. Kichik va oʻrta biznes tadbirkorligiga ishlab chiqarish korxonalarini qiyin iqtisodiy holatda qolgan paytlarida ularga 3 yildan keyin sanatsiya tariqasida yordam beriladi.

Germaniya Respublikasida esa kichik va oʻrta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shugʻullanayotgan korxonalarni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan doimo ularni qoʻllab-quvvatlaydilar.

Germaniya Respublikasida kichik va oʻrta tadbirkorlik bilan shugʻullanuvchi korxonalar birinchidan soliq toʻlovlari boʻyicha ularga imtiyozlar berish talablari asosida takomillashtirib boriladi. Kichik va oʻrta ishlab chiqarish bilan shugʻullanishni istagan mamlakat fuqarolariga moliyaviy yordam berish, ayniqsa, birinchi navbatda ishsiz ishchilarga beriladi. Kichik va oʻrta tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi ishlab chiqarish korxonalariga ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish yoki ishlab chiqarishni yangi ishlab chiqarish jihozlari, texnika va texnologiyalarini qoʻllashni innovatsion tarzda tashkil etish maqsadlarini amalga oshirish uchun ham innovatsion faoliyatlarni rivojlantirish bilan bogʻliq boʻlgan innovatsiya mablagʻlarini ajratish va bu korxonalarga davlat tomonidan bajarilishi zarur boʻlgan ishlab chiqarish vositalari boʻyicha, jixozlar boʻyicha va mahsulotlar boʻyicha kerakli darajada kvotalar, yaʼni davlat tomonidan kontraktlar tuzish orqali ham yaqindan yordam beradi.

Davlat tomonidan kichik va oʻrta biznes tadbirkorligini tashkil etishni samarali olib borish boʻyicha maslahatlar berish zarur boʻlgan axborotlar bilan ularni taʼminlash, xodimlarni malakalarini oshirish boʻyicha maxsus kurslarini tashkil etish va ularni faoliyatlarini toʻgʻri tashkil etish va boshqarish boʻyicha maslahatlar beruvchi shahobchalar tashkil etilgan.

Germaniya Respublikasida mintaqaviy va mahalliy hokimiyat darajasida kichik va oʻrta biznes tadbirkorligini rivojlantirish tashkil topgan markazlar davlatning va iqtisodiy mintaqalarda boʻlgan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish boʻyicha zarur boʻlgan tadbirlarni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Germaniyada mikrofirma va kichik va oʻrta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shugʻullanuvchi korxonalar YeIning 2003-yilda qabul qilingan mezonlari asosida tashkil topgan[15].

Mikrofirmalar asosan ularning ishlab chiqarishlarida band boʻlganlar 10 kishidan kam, kichik korxonalarda esa 10 kishidan 49 kishigacha va oʻrta korxonalarda 50 kishidan 249 kishigacha tashkil etishi belgilangan[16]. Mikrofirmalarning yillik ish hajmi 2 mln. yevroni, kichik korxonalarda esa 10 mln. yevroni va oʻrta korxonalarda esa yillik aylanmasi 50 million yevrogacha yoki balans jami 43 million yevrodan oshmasligi kerak (Komissiyasining 2003-yil 6-maydagi tavsiyasi) Ushbu taʼriflar qaysi korxonalar Yevropa Ittifoqining moliyalashtirish dasturlaridan foydalanib, kichik va oʻrta biznesni ragʻbatlantirish borasida foydalaniyotganligini baholashga qaratilgandir.

15 361 bet YeS
16 https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Glossary:Enterprise_size




3-rasm: Yevropa Komissiyasining kichik va oʻrta biznesga nisbatan siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlari

Shunga asoslangan holda davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan yordam oluvchi asosiy ishlab chiqarish subyektlarining davlat yordamiga ega boʻluvchi korxonalarda ish kuchi bandligi 250 tadan kam boʻlishi kerak.

Germaniyada mikrofirmalar va kichik hamda oʻrta tadbirkorlik faoliyatlari bilan shugʻullanuvchi korxonalarga davlat tomonidan moliyaviy jihatdan yordam berish differensiyalashtirilgan.

Mikrofirma korxonalari uchun qoʻshimcha ularning rivojlanishiga moliyaviy tadbirlar belgilanadi. Germaniyada 545 ming korxona boʻlib, shulardan har biri oʻrtacha 15 % inqirozga uchraydi. Germaniyada 2015-yilgacha har yili oʻrtacha 30–40 ming yangi korxonalar tashkil topgan. Shu bilan birga 98% korxonalar mikrofirma, kichik va oʻrta biznes korxonalari tashkil etadi. Ular umumiy ish bilan bandlikning 50% ni va mamlakatni oborotining 25% ni taʼminlaydi.

Germaniyada ishlab chiqarish asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida 2293,4 ming oʻrtoqlik boshqaruv shirkatlarida 453,7 ming xoʻjalik masʼuliyati cheklangan xoʻjaliklarda va aksioner jamiyatlari 666,2 ming va turli tashkiliy formadagi korxonalar 216,3 ming ni tashkil etadi. Germaniya Respublikasida 3629,7 ming korxonalar oʻz faoliyatlarini olib borsalarda, ularning 65% kichik tadbirkorlik subyektlari boʻlib 18% xoʻjalik jamiyati kapitaliga asoslangan. Germaniya Respublikasida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish boʻyicha yangi korxonalarni tashkil etishda Yevropa Ittifoqida birinchi oʻrinda turadi. Germaniyada federal va yer munitsipalitetlari darajasida doimiy ravishda korxonalarni tashkil etishni, ularning huquqiy darajalarini va soliq toʻlovlarini takomillashtirib borishga katta eʼtibor beriladi. Ular ishlab chiqilgan maxsus dasturlar asosida oʻz faoliyatlarini olib boradilar. Federal qonunlarga asoslangan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarish balansini tashkil etishdan va yillik hisobotni chop etishdan ozod etilgan. Yakka tartiblagi korxonalar oladigan daromadlari oyiga 60 ming yevrodan, yiliga 600 ming yevrodan kam boʻlsa balans tuzishdan, yaʼni xarajat va daromad balansini tuzishdan ozod etiladi.

Germaniyada 1,3 mln. kishi mustaqil ravishda ish faoliyatlari bilan shugʻullanadilar. Bu sohada asosan tibbiyot xodimlari 0,7 mln. kishini yoki 30% ni, maslahat beruvchi advokatlar 27% ni va madaniyat, sanʼat sohalarida 23% ni va texnika sohasida 18% ni tashkil etadi.

Kichik va oʻrta tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda 25 million yevroga yetmaydigan korxonalarga kredit berish bilan bogʻliq boʻlgan 50% darajasida riskni federal darajasida imtiyozli foizlarida kredit berish belgilangan. Bu korxonalar uchun boʻladigan 1–7 % darajasida boʻlsa, bu korxonalar 2 yilgacha kredit toʻlovlaridan ozod boʻlib, ularga kredit 10 yilgacha beriladi. Germaniyada mikrofirmalarga, kichik va oʻrta biznes korxonalariga beriladigan kredit uchun belgilangan toʻlovlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida eng past toʻlovlar hisoblanadi. Yakka tartibda tadbirkorlikni olib boruvchilarga kreditni olish uchun 10 yilgacha imtiyoz beriladi. Banklar ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan risk oldini olishni 80 % ini iqtisodini tiklash (KFW) banki oʻz boʻyniga oladi. 20 % i unga xizmat koʻrsatuvchi bank tomonidan qoplanadi.

Buyuk Britaniya mamlakati 2017-yilda yalpi ichki mahsulotda sanoat ishlab chiqarishning ulshi 27,7 % ini tashkil etgani. Uning jahon eksportida hissasi 10 % ni tashkil etadi.

Buyuk Britaniya mamlakatida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati iqtisodiy rivojlanishining asosiy subyekti hisoblanadi. Kichik tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol oʻynovchi raqobat muhitini yaratadi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlashda davlat tomonidan kichik tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha saʼy-harakatlar amalga oshiriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni taʼminlashda ularni oʻzining maxsus qabul qilingan konsepsiya asosida shart va sharoitlarni yaratiladi.

Jahon bankining xalqaro moliyaviy korporatsiyasi "2017-yilda biznesni olib borishi boʻyicha 189 ta mamlakat boʻyicha olib borgan tahlili asosida Buyuk Britaniya mamlakati kichik biznesni tashkil etish va olib borishi boʻyicha 7 oʻrinni egallagan"[17].

17 Исследование Всемирного банка: ведение бизнеса в 2017 году // Центр гуманитарных технологий.URL: http://gtmarket.ru/news/2016/10/26/7312

Ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan bandlik 54% ni, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishda 50,2% ni va ishlab chiqarishni olib borayotgan korxonalarning 96,6% kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan[18].

Buyuk Britaniyada 2000-yil aprel oyidan boshlab kichik biznesni xizmati maxsus tashkiloti tuzilgan bo‘lib, u Savdo va sanoat vazirligining bir xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:




4-rasm: Buyuk Britaniya Savdo va sanoat vazirligining asosiy vazifalari

Hozirgi kunda bu mamlakatda “Kichik biznes kengashi” o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bu mustaqil tashkilot bo‘lib, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun zarur bo‘lgan maslahatlarni berishi bilan birga davlat qarorlarini yanada takomillashtirish va samarali bo‘lishi bo‘yicha sanoat va savdo bo‘yicha davlat kotibiga o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

Kichik tadbirkorlik kengashi har yili o‘zining faoliyati bo‘yicha yillik hisobotni chop etadi. Bu kengash kichik tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq ularni faoliyatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiya va takliflar beradi. Kichik biznes kengashi kichik biznesning aylanma mablag‘larini 500 ming funtgacha bo‘lganlarini audit tekshiruvning ayrim talablarini bajarishdan ozod qilishni, kichik korxonalarni to‘lovlari shakllarini takomillashtirishni amalga oshiradi. Davlatning dasturiga asosan kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish uchun 6,0 mlrd funt sterling mablag‘ ajratiladi.

Kichik tadbirkorlik korxonalariga beriladigan kreditning 70% dan 85% gacha hajmda davlat tomonidan kafolatlanadi.

Kichik biznes xizmati tashkiloti kichik biznesni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, mintaqaviy darajada venchur kapitalini tashkil etish, kichik va o‘rta korxonalar uchun yordam beruvchi investorlarni jalb etish, ularning eksport sohalarini qo‘llab-quvvatlash ishlarini amaga oshiradi.

Buyuk Britaniya 1996-yildan boshlab kichik korxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus “Biznes Link” tarmog‘i tashkil etilgan. Bu tashkilotning asosiy vazifasi telefon orqali maslahatlar berish hisoblanadi. Yakka tartibda maslahatlar berish va maxsus ixtisoslashgan kichik va mikrofirmalarni zarur bo‘lgan texnikaviy yordam berish mahsulot va texnikalarni innovatsion mahsulot va texnikalarni ishlab chiqarishga joriy etish, kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalariga zarur bo‘lgan komissiya, ishlab chiqarish jihozlarini yetkazib beruvchi korxonalar bilan aloqalar o‘rnatish va tashqi bozorga chiqish uchun yaqindan yordam berishni tashkil etadilar. Buyuk Britaniya 2014-yildan o‘z faoliyatini boshlagan mintaqaviy rivojlavnish RD-agentligi asosan kichik va o‘rta biznes faoliyatlarida infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi to‘siqlarni oldini olish uchun yiliga 8,2 mlrd. funt sterling xarajat qiladi[19].

Mamlakatda 2007-yildan boshlab “Kichik biznesni iqtisodiy samaradorligini qo‘llash” maxsus guruh tashkil etgan. Uning asosiy vazifasi davlat tomonidan kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalarni iqtisodiy natijalarini sifat va iqtisodiy jihatdan baholashni takomillashtirishga qaratilgan. Kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta’minlash bo‘yicha davlat tomonidan tadbirlarni amalga oshirilishi ta’minlanadi. Davlat

18 Чуприн Дмитрий Александрович Опыт Великобритании в государственной поддержке малого бизнеса // Концепт. 2018. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-velikobritanii-v-gosudarstvennoy-podderzhke-malogo-biznesa (дата обращения: 27.06.2021).( Развитие и поддержка малого и среднего предпринимательства в Российской Федерации. ДокладМинэкономика развитии Российской Федерации на 12 заседании Консультативного совета по поддержке и развитя малого предпринимательства в государственных участников стран СНГ. Москва 26.10.2017 URL htp:www.smb.gov.ru)

19 http://www.berr.gov.uk./fayles/fayl42813.pdf

tomonilan kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati natijasida mintaqa darajasida amalga oshirilayotgan (B22PC The Business Support Simplification Programine) dasturi asosida har yili iqtisodiy samaradorlik 1,4 mlrd funt sterling tashkil etadi[20].

Osiyoning janubiy sharqida Xitoy Koreya va Hindiston mamlakatlarida davlatlar tomonidan kichik va o‘rta ishlab chiqarish faoliyatlarini olib borishda ularni qo‘llab-quvvatlash tajribalari o‘zining xususiyatiga ega bo‘lib, uni o‘rganishni talab etadi.

Xitoy mamlakatlarida ham kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga davlat tomonidan katta e’tibor beriladi.

Bu iqtisodiy yo‘nalishda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun asosan investitsiya mablag‘larini jalb qilish, kredit berishni kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Davlat tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarish yo‘nalishini rivojlantirishni iste’mol bozorlari talablariga asoslangan holda qabul qilingan qonunlarni barqaror rivojlanishini ta’minlash va kichik tadbirkorlik subyektlariga soliq solishni takomillashtirib borish orqali tartibga soladi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati Xitoy Xalq Respublikasining “Boshqaruvchi palatasi” bilan “Iqtisodiyotni rejalashtirish va rivojlantirish Kengashi” tomonidan rejalashtiriladi va boshqariladi. Bu kichik tadbirkorlik faoliyatlarini olib boruvchi subyektlarni boshqaruvchi tashkilotlar Xitoy Xalq Respublikasining Iqtisodiyot vazirligi ixtiyorida bo‘lib vazirlik tomonidan umumlashgan holda kichik va o‘rta tadbirkorlik ma’muriy boshqaruvi asosida amalga oshiriladi.

Xitoy Xalq Respublikasida milliy sanoatni va uni texnologik rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan “Technology Development Proramr-TDP” dasturi asosida ITTKI ni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish texnologiyalarini va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishni amalga oshirish yo‘lida innovatsion markazlarni tashkil etish uchun 500 mln. AQSh dollarida mablag‘ ajratilgan. Xitoy Xalq Respublikasida asosiy moliyaviy institut bo‘lgan eksport-import banki orqali eksport-import faoliyati olib boriladi. Ularning asosiy vazifalari tovarlarni eksport qilish va investitsion loyihalarni xizmat ko‘rsatishda asosan mexanik va elektron mahsulotlarni, yuqori ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan ishlab chiqarish mahsulotlarini eksportga chiqarishdan iborat. Turli fuqarolar va sanoat qurilish ishlarini Xitoy qurilish kompaniyalarini qatnashuvini ta’minlash va kreditlar berishdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasida qishloq joylarida joylashgan va qoloq mehnatga yaroqli resurslarini ish bilan ta’minlashi hisobiga olinadigan foyda solig‘i imtiyozli 10% darajasida belgilangan. Innovatsion ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan korxonalar haqiqatdan innovatsion tarzda ishlab chiqarishni amalga oshirayotganligi to‘g‘risida Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnika vazirligi tomonidan tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘lsalar, foyda solig‘i 15 % qilib belgilanadi.

Oliy o‘quv yurtlari ixtiyorida bo‘lgan innovatsiya bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar foyda solig‘i to‘lo-vidan ozod etilgan. Ishlab chiqarish korxonalariga texnikaviy jihatdan maslahat beruvchi yoki yangi texnikalarni ishga tushirish bilan xizmat ko‘rsatuvchi kichik va o‘rta tadbirkorlik korxonalari yillik daromadlari 300 ming yuandan kam bo‘lsa, ular foyda solig‘i to‘lovidan ozod qilinadi. Kichik va o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarida band bo‘lgan ishlab chiqarish xodimlarining umumiy sonidan 65%i nogiron bo‘lgan taqdirda 3 yilgachan soliq to‘lovidan ozod etiladi.




5-rasm: Koreya respublikasida Savdo va sanoat vazirligi tomonidan mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan asosiy vazifalari

20 http://www.bis.gov.uk/policies/enterrise-and-business-support

Hindistonda amalga oshirilgan tajriba shuni koʻrsatadiki, ularda korxonani ochish uchun eng kam darajada Nizom jamgʻarmasiga ega boʻlish va biznes operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan sertifikat bekor qilinishi natijasida korxonani roʻyxatga olish va ishga tushirish uchun besh ish kuni sarflanishiga erishilgan.

Natijada kichik va oʻrta biznes korxonalarini roʻyxatdan oʻtkazish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bogʻliq boʻlgan huquqiy institutlar va belgilangan roʻyxatdan oʻtkazish yengillashgan. Agarda 2015-yilda 66 ta iqtisodiy oʻzgartirishlarni 53 ta mamlakatlarda amalga oshirilgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2014-yilda 230 ta ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish boʻyicha kayta tashkil etish boʻyicha turli yoʻnalishlarda qarorlar va uslubiy tavsiyalar qabul qilingan boʻlgan. Shulardan, 145 tasi qiymatini tushirish bilan bogʻliq boʻlgan boʻlsa, 85 tasi huquqiy boshqaruviga tegishli boʻlgan. Biznesni 2005-yilda olib borish boʻyicha 2015-yildagi iqtisodiy rivojlanishni boʻyicha biznesni olib borish boʻyicha qilingan maʼruzada 2013–2014-yillar ichida 123 mamlakatlarda mahalliy tadbirkorlar huquqiy yoʻnalishda ijobiy oʻzgarishlarga21 ega boʻlganlar.

Biznesni tashkil etish va amalga oshirish boʻyicha 2016-yilga bagʻishlangan maʼruzada biznes sifati va uning samaradorligini oshirishni tartibga solinishi uning rivojlanishi qatorida iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlib, aholini iqtisodiy holatini va ijtimoiy turmush darajalarini yaxshilab borishiga xizmat qiladi. Jahon banki tomonidan tashkil etilgan global indikatorlarni oʻrganish guruh direktori Augusto Lopes-Klaros fikricha, olib borilgan tadqiqotlar asosida olingan natijalar tadbirkorlik faoliyatlarini tartibga solishning huquqiy normalarni samarali va sifatli olib borilishiga xizmat qiladi. Guruh tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari tadbirkor subyektlari bilan hamkorlikda iqtisodiy jihatdan barqaror mustaqillik holatiga ega. Tadqiqot natijalari mahsulotlar ishlab chiqarishdagi raqobatdoshlik darajalarini oʻsib borishi va milliy iqtisodiyotni oʻsib borishiga xizmat qiladi deb hisobladi. Shu bilan birga, kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalarining ish faoliyatlarini turli darajada boʻlishi natijasida ularning olayotgan foydalari turli darajada boʻlishi oqibatida turli tashkiliy, iqtisodiy va investitsiyalashtirish yoʻnalishlarida qiyinchiliklarga uchraydilar.

Bu qiyinchiliklardan biri korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish uchun yetarli darajada investitsiya mablagʻlariga ega boʻlmasligi, olinadigan kreditlarga belgilangan ustama foiz toʻlovlarini yuqoriligidir. Kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarish faoliyatlarini olib berishlari tartibga solishni bozor iqtisodiyoti talablari bilan hamohang holda rivojlanishiga erishishni talab etadi.

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish birlashma aʼzolari mamlakatlarida kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan qabul qilinayotgan qonunlar asosida qoʻllab boriladi. Masalan, Germaniya, Ispaniya, Yaponiya va Yangi-Zenlandiya mamlakatlarida qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning ½ qismi.

Turkiya mamlakatida ham kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalari asosan toʻqimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan boʻlib, ularni ishlab chiqargan mahsulotlari jahon isteʼmol bozori standartlariga toʻliq javob berishi bilan ajralib turadi. Turkiya hukumati tomonidan kichik va oʻrta ishlab chiqarish tadbirkorlik korxonalariga ularning mahsulotlarini xorijiy isteʼmol bozorlarida sotishda va xalqaro koʻrgazmalarda qatnashishlari bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlarni maʼlum qismini qaytarish, xorijiy xarid qiluvchi subyektlarni uchrashuv xarajatlarini qaytarish tovarlarni samarali eksportida soliq imtiyozlarini berish bilan yaqindan yordam beradi. Turkiyada qabul qilingan 2009-yil 18-fevraldagi №5838-son Qonunga asosan korporativ toʻqimachilik sanoatida 50 va undan ortiq ishchi ishlaganda korporativ soliq fondi stavkasi 75% hisobda diskontlangan. Natijada uning soliq stavkasi 20% dan 5% ga kamayadi. Kichik va oʻrta tadbirkorlik korxonalarini moliyaviy va kreditlash tashkilotlari tomonidan iqtisodiy yordam davlatdan olinishi iqtisodiy mintaqalar xususiyatlariga qarab moliya va kredit beruvchi tashkilotlar bajariladigan loyiha qiymatini 70% qiymatini 1–5 yilgacha bank tomonidan qoplanishi kafolatlanadi. Turkiya oʻzining ishlab chiqargan mahsulotlarni ichki isteʼmol bozorlarida himoya qilish uchun import qilinadigan masalan toʻqimachilik tovarlariga tayyor kiyim boshlarga 30%, toʻqimachilik mahsulotlariga 20% bojxona toʻlovlarini kiritish aosida ichki ishlab chiqarish korxonalarini isteʼmol bozorlarini himoya qilish hisobiga import mahsulotlarini kirib kelishini 15% ga tayyor kiyim-kechaklarni kirib kelishini 25% ga kamaytirishga erishgan.

Iqtisodiy rivojlangan yettita yetakchi mamlakatlar hukumatlari butun eʼtiborlarini menejerlar ish faoliyatlarini yaxshilashga qaratganlar. Bu yoʻnalishda Yaponiya mamlakat tajribalarini oʻrganishga eʼtibor berish zarur. Ular menejerlarning asosiy faoliyatlarini asosan maslahat berishga va kollejlarda kichik va oʻrta korxonalar uchun menejerlar tayyorlashga qaratganlar. Yaponiya mamlakatida asosiy maqsad, kichik va oʻrta korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlarini nafaqat ichki bozorga balki tashqi bozorga chiqarishni davlatning mahsulot xarid qilishini amalga oshirish bilan bogʻliqlikda olib borishni yoʻlga qoʻyganlar.

Xorijiy mamlakatlarda kichik va oʻrta tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarini xorijiy isteʼmol bozoriga chiqishini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlab, tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda, ular tomonidan yaratilgan mahsulotlar isteʼmol bozorlarida raqobatdosh boʻlishini taʼminlashga, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishga, isteʼmol narxlarini arzonlashtirishga va olayotgan foydani oʻsib borishiga erishiladi.

Hukumat doimiy ravishda iqtisodiyotga aralashish asosida mehnat resurslarini talab va taklif asosida shakllantirib, iqtisodiyot tarmoqlarida uning korxonalari oʻrtasida zarur boʻlgan hom-ashyolar bilan taqsimotini taʼmin-

21 http://russian.doingbusiness.org/reports/global-reports/doing-business

lashi uchun yuqorida aytib o'tilgan asosiy vazifalarni bajarishi lozim va shu orqali milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalash bo'yicha jahon iqtisodchi va respublika olimlarining uning kategoriyalarini o'rganish asosida bergan uslubiy tushunchalari orqali quyidagi xulosaga keldik. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan iqtisodiy rivojlanishni turli mulkchilik egaligi asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish erkin raqobat asosida olib borilishi natijasida ular tomonidan ishlab chiqarish jarayonini investitsiyalash va ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashtirish bo'yicha keltirilgan ilmiy xulosalarini tan olgan holda, respublikaning iqtisodiy mintaqalarida joylashgan kichik biznes subyektlarini YaIM o'sib borishidagi hissani e'tiborga olib, innovatsion rivojlantirish asosida ularning samaradorligini o'sib borishini ta'minlash, iqtisodiy mintaqalarni ham iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida rivojlangan mamlakatlardagi kichik va o'rta biznes subyektlarini investitsiyalash orqali rivojlanishi ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini ilmiy texnikaviy markazlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi natijasidir.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini investitsiyalashda ishlab chiqarish subyektlari bilan iste'mol tovarlarini taklif etuvchi bozor subyektlari iqtisodiy munosabatlarning o'rganilganligii kichik biznes subyektlari faoliyatida innovatsion ishlab chiqarish subyektlarining ustunlik darajasini asoslab berilishi orqali ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Italiya korxonalarida ITTKI faoliyatini rivojlantirishda soliq to'lovlarini 25% gacha kamaytirish, Fransiyada ITTKIni rivojlantirish uchun sarflangan innovatsion mablag' uning umumiy xarajatlarini 15,0% gacha bo'lishi, ularning umumiy rivojlanishiga ajratilgan mablag'ning 50,0% ni tashkil qilishi tarmoqda soliq imtiyozlaridan yanada samarali foydalansa, samaradorlik yanada oshishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Germaniyada mikrofirmalarda 9 kishigacha, kichik korxonalarda 10–49 kishi va o'rta korxonalarda 50–249 kishi bandligi tajribalaridan, Xitoy Xalq Respublikasida "Boshqarish palatasi" bilan "Iqtisodiyotni rejalashtirish va rivojlantirish kengashi" tomonidan amalga oshirilishi, innovatsion markazlarni tashkil etish, ITTKI bilan shug'ullanuvchi korxonalar hujjatlari bo'lgan taqdirda 15,0% soliq to'lovlari tajribalaridan foydalanish, Koreyada ITTKI ishlarini 20% bajarilgan taqdirda 5–6 mln. von davlat tomonidan yordam berish, Turkiyada soliq stavkasini 20% dan 5,0 foizga kamayishini umumiy soliq fondini 75,0% diskotlangan bo'lishi, import mahsulotlariga 15,0%, tayyor kiyim-kechaklarga 25,0% boj to'lovlari hisobiga ichki iste'mol bozorini himoya qilish tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20-noyabrdagi PQ–4525-son qarori. https://lex.uz/docs/4602230.
2. Александров С, Искандаров Р Цифровая экономика-экономика осуществляемая помощью цифровых телекомуникаций // Технология и средствосвязи: 2009 №5.
3. Буров В. Ю Малое предпринимательство в пространственном развитии региона. Вестник Бурятского Государственного Университета. Серия. Экономика и право. №2 (1) 2015.С 78–84.
4. Ғозибеков Д. Инвестиция нима дегани? Бозор, пул ва кредит. 1999, W 9. 40 б.
5. Петров, Д. В. Малое предпринимательство России: современное состояние и перспективы развития / Д. В. Петров // ЕГИ. – 2020. – № 2 (28). – С. 102–105;
6. Тихомирова, О. Г. Глобализация и малый бизнес: новые возможности для малых и средних предприятий / О. Г. Тихомирова // Менеджмент в России и за рубежом. – 2019. – № 3. – С. 79.
7. Eshov M. P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Monografiya.T, 2017. 80 b.;
8. Gofurov U. V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis. Avt. ref. iqt.fan. doktori T.: 2017. 30 b.
9. Абдурахмонова Г. К. Малый бизнес в обеспечении занятости населения в Узбекистане. Вестник Российского экономического университета им. Г. В. Плеханова. 2014, №12. – С. 129–136.
10. O. Aripov Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi "Namangan" nashriyoti, -T.: 2018. – 213 b.
11. Маширова Т. Н. Сабенова Б. Н., Сихымбекова А. М Основные направления развития малого и среднего бизнеса: Зарубежный опыт. // Ж. Экономика и финансы. №3. 2012. – С. 31.
12. Ro'ziyeva D. I. Kichik biznesni xalqaro kreditlar hisobidan investitsiyalash // "Iqtisod va moliya" jurnali, 2013 yil №6.
13. Ro'ziyeva D. I. Kichik biznesni investitsiyalash bo'yicha xorij tajribasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. // "Iqtisod va moliya" jurnali, 2013 yil №9.




TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.